4 Медетуллаев Ж. Проблемы комплексного освоения земель. Нукус. Каракалпакстан. 1976. Умаров Е.К. Проблемы совершенствования территориальной структуры производительных сил Республики Каракалпакстан. Автореф. на соиск. уч. степ. доктор географических наук. –Т.: 2003. –48 с. Убайдуллаев К., Данияров К. Актуальные проблемы аграрного сектора Республики Каракалпакстан в условиях рынка. // Актуальные проблемы современной науки. –2004. –№2. –С. 90-91. Бектемиров К.К. Устойчивое развитие регионов экологического кризиса: методология и инструментарий применения в Приаралье. Т.: Фан. 2006. 160 с. Sauxanov J.K. Agrar tarmoqda tashqi samaralarni optimal tartiblashtirish va transaksiya xarajatlarini pasaytirish: muammolar, usullar va modellar. T.: Lesson Press. 2022. 269. b.

5 Бектемиров К.К. Устойчивое развитие регионов экологического кризиса: методология и инструментарий применения в Приаралье. Т.: Фан. 2006. С.60.

Mazkur tadbirlar mintaqada qisman ishlab chiqarishga joriy qilingan, lekin aniq bir tizim sifatida yo‘lga qo‘yilmagan yoki boshboshdoqlik bilan amalga oshirilmoqda. Bu esa o‘z navbatida agrar sohaning iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Ushbu mulohazalardan kelib chiqqan holda, mazkur ishning asosiy maqsadi mintaqa agrar sohasini istiqbolda miqdor va sifat jihatdan takomillashtirish hisoblanadi.

Mintaqa qishloq xo‘jaligini istiqbolda rivojlantirish birinchi navbatda mavjud yer-suv resurslaridan samarali foydalanish talab etiladi. Undan oqilona foydalanish, ifloslanish va degradatsiyadan himoya qilish dolzarb vazifadir.

Sug‘oriladigan yerlarni kafolatli suv bilan ta’minlash muammosini hal etishda mavjud sug‘orish tizimlarini texnik rekonstruksiya qilish, sug‘orish suvidan yuqori samarali foydalanishning ilg‘or usullarini joriy etish katta ahamiyatga ega.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, Qoraqalpog‘istonda tuproq unumdorligining pasayishi alohida tashvishli jarayon hisoblanadi. So‘ngi yillarda sug‘oriladigan yerlarning hosildorligi 5-20 foizga kamaygan[6]. Sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanish darajasining yuqoriligi, suv resurslarining yetishmasligi yerdan foydalanish koeffitsiyentini pasaytirmoqda. Shuningdek, grunt suvlarining yer yuzasiga yaqinligi unumdorli tuproq qatlamining ikkilamchi sho‘rlanishiga olib kelmoqda.

Qoraqalpog‘istonda grunt suvlari yer sathiga yaqin joylashgan bo‘lib, minerallashuv darajasi turlicha xususiyatga ega. 2020-yil vegetatsiya davrining boshida 510.30 ming gektar sug‘oriladigan yerlarning 131.33 ming gektar maydonida grunt suvlari sathi 2 metrgacha yoki sug‘oriladigan maydonning 25.7 foizini egallagan bo‘lsa, vegetatsiya davrining oxirida 2 metrgacha bo‘lgan grunt suvlari sathi egallagan maydon 101.39 ming gektarni yoki 19.9 foizni tashkil etgan. Grunt suvlarining minerallashuv darajasi 3 g/l ni, ayrim joylarda undan ortib ketadi. Qurg‘oqchil zonaga xos bo‘lgan iqlim sharoitida yuqori konsentratsiyaga ega grunt suvlarining yer sathiga yaqin joylashishi tuproq sho‘rlanishiga zamin yaratadi.

Kollektor-drenaj tarmoqlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi sug‘orma dehqonchilikda agrotexnik qoidalarning buzilishi tufayli tuproqlarning ikkilamchi sho‘rlanishi yuz bermoqda.

Daryoning quyi oqimi sharoitida sug‘oriladigan maydonlardan yer osti sulari chiqarib tashlash uchun yirik kollektor-drenajlar alohida rol o‘ynaydi. Biroq respublikada mineralizatsiya darajasi yuqori bo‘lgan yer osti suvlarini uzoqlashtirish bo‘yicha olib borilayotgan tadbirlar holati past hisoblanadi.

Qoraqalpog‘istonda sug‘oriladigan maydonlarning 362.58 ming ga yoki 70.4 foizni turli darajada sho‘rlangan yerlar tashkil etadi. Shundan, 5.5 foizi kuchli va juda kuchli, 50.6 foizi o‘rta va 43.8 foizi kuchsiz sho‘rlangan. Turli darajada sho‘rlangan maydonlarning 62 foizi shimoliy zonaga to‘g‘ri keladi (1-jadval).

1-jadval: Qoraqalpog‘iston Respublikasida sug‘oriladigan maydonlarning sho‘rlanish darajasi bo‘yicha tavsiflanishi, ming ga hisobida

| Zonalar | Sug‘oriladigan maydonlar | Shundan: | | Sho‘rlanish darajasi bo‘yicha taqsimlanishi | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Sho‘rlanmagan | Sho‘rlangan | Kuchli va juda kuchli sho‘rlangan | O‘rta sho‘rlangan | Kuchsiz sho‘rlangan |
| Janubiy | 138.28 | 43.48 | 94,8 | 7.09 | 46.69 | 41.03 |
| Markaziy | 62.45 | 19.53 | 42,92 | 0.69 | 22.29 | 19.92 |
| Shimoliy | 313.9 | 89.04 | 224,86 | 12.28 | 114.65 | 97.93 |
| **Jami** | **514.63** | **152.05** | **362,58** | **20.06** | **183.63** | **158.89** |

Jadval Qoraqalpog‘iston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Ushbu holat sug‘oriladigan yerlarning sifatiga, ekinlarning hosildorligiga oxir oqibat qishloq xo‘jaligining iqtisodiy ko‘rsatkichlariga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Sho‘rlanish darajasiga qarab paxta xosildorligi quydagicha o‘zgaradi: sho‘rlanmagan yerlarga nisbatan kuchsiz sho‘rlangan yerlarda 20-30 foizgacha, o‘rtacha sho‘rlangan yerlarda 40–60 foizgacha, va yuqori sho‘rlangan yerlarda 80 foizdan ortiq bo‘ladi[7]. Bundan tashqari, sug‘oriladigan tuproqlarning sho‘rlanishi har yili takroriy sho‘r yuvishni talab qiladi, bu esa sug‘orish uchun juda ko‘p miqdorda suv sarfini talab qiladi. Sho‘r yuvish bilan bog‘liq tadbirlarni o‘tkazishning zaruratga aylanishi mahsulot yetishtirish uchun ketadigan harajat miqdorini o‘rtacha 8 foizga oshirsa, boshqa tomondan esa mazkur tadbirni amalga oshirmaslik hosildorlikni 25 foizgacha kamayishiga sababchi bo‘ladi[8].

6 Бектемиров К.К. Устойчивое развитие регионов экологического кризиса: методология и инструментарий применения в Приаралье. Т.: Фан. 2006. С.60.

7 Bektemirov K. Land reform in the Aral Sea region //Beyond Growth: Institutions and Policies for Sustainability. Santiago, Chile ISEE, 1988. P166.

8 Sultanov B.F. Qishloq xo‘jaligida meliorativ tadbirlar samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. DSs avtoreferati. –T.: 2020. –77 b.

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

Mavjud sho‘rlanishni bartaraf etish va ikkilamchi sho‘rlanishning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimida kollektor-drenaj tarmog‘i asosiy o‘rin tutadi.

Kollektor-drenaj tarmog‘ining uzunligi 1 ga maydonga 17.3 pogonametrdan 40.8 pogonametrgacha yetkazish paxta hosildorligini 15.8 s/ga dan 26.7 s/ga ga oshirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi[9]. Shuningdek, paxtachilik instituti olimlarining ko‘p yillik ma’lumotlariga ko‘ra, kollektor-drenaj tarmoqlari uzunligining ko‘payishi nafaqat hosidorlikning, balki yuqori navli hosil olishga imkoniyati yuqori bo‘lishini isbotlagan.

Respublikada sho‘r yuvish bo‘yicha katta ko‘lamdagi tadbirlar olib borilmoqda. Jumladan, 2016–2020-yillarda 221 ming ga. yerning meliorativ holati yaxshilangan va 269 mlrd. sum moliyaviy resurslar o‘zlashtirilgan (2-jadval).

2-jadval: Qoraqalpog‘iston Respublikasida meliorativ obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash bo‘yicha ma’lumot

| Loyihalar | O‘lchov birligi | 2016–2020-yillar | 2016-yil | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil | 2020-yil |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Loyiha soni | | | | | |
| | дона | 237 | 38 | 43 | 50 | 66 | 40 |
| Kollektor-drenaj tarmog‘i (qurish, rekonstruksiya qilish) | km | 2391 | 117 | 1992 | 133.3 | 121.2 | 26.6 |
| Kollektor-drenaj tarmog‘i (ta’mirlash-tiklash) | km | 7950 | 2066 | 1944 | 1396 | 1420.7 | 1122,2 |
| Ajratilgan mablag‘ | mlrd. | 269 | 43 | 45.5 | 53.0 | 70,8 | 56.6 |
| Meliorativ holati yaxshilangan maydon | ming ga | 221 | 38 | 39.9 | 42.6 | 46 | 54.5 |

Jadval Qoraqalpog‘iston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

Bu tadbirlarning olib borilishiga qaramasdan mintaqada mazkur ishlar bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar o‘z yechimini kutmoqda.

Qoraqalpog‘istonda ochiq kollektorlar uzunligi 20584.8 km. ni tashkil etib shundan, 26.4 foizi ta’mirga muhtoj hisoblanadi. Bu ko‘rsatkich 2000-yili 20.0 foizni, 2015-yili 22.3 foizni tashkil etgan. Mos ravishda sug‘oriladigan maydonlarning sho‘rlanish darajasi 68.9 va 69.7 foizga ortib borgan. Shuningdek, xo‘jaliklararo va ichki xo‘jaliklardagi ochiq kollektorlarning 50 foizdan ko‘prog‘i ta’mir talab darajaga kelgan. Yopiq drenaj tarmoqlarining umumiy uzunligi 430.4 km ni tashkil etgan holda sug‘oriladigan 1 ga maydonga 24.3 pog. m. yopiq kollektorlar to‘g‘ri keladi. Bundan tashqari yopiq drenaj tarmoqlarining 25–30 foizi ishdan chiqqan. Tik drenaj quduqlari umuman mavjud emas.

Hozirgi suv resurslari yetishmayatgan bir payda, yer resurslardan samarali foydalanish ayniqsa, Qoraqalpog‘iston qishloq xo‘jaligi uchun dolzarb masala hisoblanadi. Bunda bizning fikrimizcha, asosiy e’tiborni nisbatan suv yetib borishi oson bo‘lgan daryo va kanallar bo‘yidagi ekin maydonlardan dehqonchilik maqsadida intensiv foydalanish lozim. Shu maqsadda bu hududlardagi ekin maydonlardan vertigal va gorizontal dernajlardan foydalanishni yo‘lga qo‘yish maksadga muvofiqdir. Chunki kollektorlarning ko‘pligi ekin maydonlarida yer osti suvlari sathining ko‘tarilishining oldini olishi bilan birga ekin ekiladigan maydonlarni band qiladi. Suv manbalariga uzoq joylashgan ekin yerlarni chorva mollari uchun yem-xashak bazasi sifatida o‘zlashtirish ijobiy samara beradi.

Yuqorida ko‘rsatilgan omillar tuproqlarning sho‘rlanishiga va hosildorligining pasayishiga olib kelmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, yerlarning sho‘rlanishini minimal darajaga kamaytirish bo‘yicha kompleks tadbirlarni olib borish zarurligini ko‘rsatadi. Bu tadbirlar quydagi yo‘nalishlarda olib borilishi lozim:

- sho‘rlangan yerlarda mavjud kollektor-drenaj tarmoqlarini ta’mirlash va tozalash, ularning sho‘r suvlarni tortish va o‘tkazish quvvatini oshirish;
- drenajlarning barcha (gorizontal, vertikal) tarmoqlaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish;
- sug‘oriladigan 1 ga maydonga to‘g‘ri keladigan kollektor-drenaj tarmoqlarining pogonametr uzunligini ko‘paytirish;
- eroziyaga qarshi choralar (tuproqning suv va shamol eroziyasidan nazorat qilish);
- tuproqning kimyoviy-fizik xususiyatlarini yaxshilash.

9 Юсупбаев К.Ю. Особенности реализации экономической реформы в аграрном секторе Республики Каракалпакстан. –Т.: 2001. –С. 104.

Oldin ta'kidlaganimizdek, mintaqada tuproq unumdorligining kamayib borishida yerlarning sho'rlanishidan tashqari ekin yerlar tarkibida ko'p yillar davomida paxta yakkaxokimligiga katta ahamiyat qaratilishi, ozuqa ekinlar ayniqsa, beda maydonlarining kamayib ketishi natijasida almashlab ekishning izdan chiqishiga ham sabab bo'lmoqda. Paxta yakkaxokimligi natijasida qishloq xo'jaligi ekin maydonlarida begona (yovvoyi) o'tlar ko'payishi, tuproqning qurib hosildorlik va mahsulot sifatining pasayishi, kasalliklarning ko'payishi, chorvachilik va dehqonchilik uyg'unligining izdan chiqishiga, harajatlarning oshishiga pirovardida iqtisodiy samaradorlikning kamayishiga olib keldi. Shunday ekan tuproq unumdorligini oshirish va saqlab qolishda almashlab ekish ahamiyatli o'rin tutadi.

Bundan tashqari Orol dengizining qurishi ham qishloq xo'jaligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Jumladan, dengizning qurigan tubidan shamollar ko'p miqdorda sug'oriladigan yerlarga tuzli changlarni olib kelishi ekin maydon va yaylovlar hosildorligining pasayishiga, chorva mollari mahsuldorligining pasayib borishiga va qisir qolishiga olib kelmoqda. Shuningdek, kuchli shamolli kunlarning ko'payishi g'alla va donli ekinlarning yotib qolishiga, o'simlik va tuproq qatlamida degradatsiyaga jarayoni yuz berishi Janubiy Orolbo'yida cho'llashish jarayonin tezlashtirmoqda. Bu esa nafaqat qishloq xo'jaligiga balki butun iqtisodiyotga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu nuqtayi nazardan mintaqada biologik xilma-xillikni saqlagan holda iqtisodiyotni kompleks barqaror rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish lozim.

Qishloq xo'jaligida ayniqsa, sug'oriladigan yerlar hosildorligini muttasil orttirib borish mintaqa iqtisodiyoti barqaror rivojlanishining muhim garovlaridan biri hisoblanadi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarda sug'oriladigan yerlarning unumdorligi 5-20 foizga pasaygan. Gumus tuproq unumdorligini belgilovchi asosiy omil sifatida muhim ahamiyatga ega. Qoraqalpog'iston Respublikasining sug'oriladigan hududlaridagi tuproq qatlami nisbatan tabiiy past unumdor hisoblanadi (gumus miqdori 0.4–0.7%)[10]. Qoraqalpog'iston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, keyingi 15–20 yil davomida tuproq unumdorligining asosiy ko'rsatkichi bo'lgan chirindi miqdori 30–50 foizga kamaygan[11].

Tadqiqotlardan ma'lum bo'ldiki, "eng yaxshi" toifa yerlar maydoni 1980-yilda sug'oriladigan yerlarning 10.4 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilga kelib, mazkur toifaga kiruvchi yerlar maydoni qolmagan. Mazkur yillar davomida "yaxshi" yerlar maydoni 22.5 foizdan 3.3 foizgacha kamayib ketgan. Shu vaqtning o'zida o'rtacha va o'rtachadan past yerlar maydoni ko'paygan. Qoraqalpog'iston bo'yicha o'rtacha ball boniteti 42.4 ni tashkil etgan (3-jadval).

3-jadval: Qoraqalpog'iston Respublikasi sug'oriladigan yer maydonlarining sifat ko'rsatkichlari

| Klass | Ball | Sifat | Sug'oriladigan yer maydonlari | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | 1980-y. | | 1985-y. | | 1995-y. | | 2019-y. | |
| | | | ming ga | % | ming ga | % | ming ga | % | ming ga | % |
| I | 81-100 | Eng yaxshi | 33.7 | 10.4 | 29.6 | 7.1 | 0.5 | 0.1 | - | - |
| II | 61-80 | Yaxshi | 72.5 | 22.5 | 72.5 | 17.4 | 30.7 | 6.9 | 14.4 | 3.3 |
| III | 41-60 | O'rtacha | 84.8 | 26.3 | 86.8 | 20.8 | 172.6 | 38.8 | 202.5 | 47.3 |
| IV | 21-40 | O'rtachadan past | 131.7 | 40.8 | 228.2 | 54.7 | 240.8 | 54.2 | 211.5 | 49.4 |
| V | 1-20 | Yomon | - | - | - | - | | - | - | - |

Jadval Bektemirov K.K. Ustoychivoye razvitiye regionov ekologicheskogo krizisa: metodologiya i instrumentariy primeneniya v Priarale. T.: Fan. 2006. s 63. va O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi "O'zdaverloyha" davlat ilmiy-loyhalash instituti Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limi "QRerloyha" ma'lumotlari asosida tuzildi.

Shuni ta'kidlash joizki, 1980 yillarda Qoraqalpog'iston ekin maydonlar tarkibida eng yaxshi, yaxshi va o'rtacha sifatli toifadagi yerlar ulushi nisbatan yuqori bo'lgan. Lekin dengizning qurib borishi natijasida yerlarning holati keskin yomonlashdi.

Tabiiy-iqtisodiy zonalar bo'yicha ekin yer maydonlarining sifat ko'rsatkichlari turlicha hisoblanadi. Jumladan "yaxshi" toifaga tegishli yerlarning 92.3 foizi janubiy zonaga to'g'ri kelsa, 6.9 foizi markaziy zonaga, 0.7 foizi Orol dengizining qurigan tubiga yaqin bo'lgan shimoliy zonaga to'g'ri keladi. Shimoliy zonaga "o'rtacha" toifa yerlarning 50.9 foizi, "o'rtachadan past" toifa yerlarning 69.4 foizi, mos ravishda markaziy zonaga 16.1-10.4 va janubiy zonaga 33.0-20.2 foizi to'g'ri kelgan.

10 Исмаилов У.Е. Научные основы повышения плодородия почвы. –Нукус. –Билим.– 2004. –с.3.
11 Рзаев К., Бектемиров К. Состояние и перспективы развития сельского хозяйства Приаралья в ходе рыночных преобразований //Общественные науки в Узбекистане. 1997. №3-4. С. 12-16.

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

4-jadval: Qoraqalpog'iston Respublikasi tabiiy-iqtisodiy zonalar bo'yicha sug'oriladigan yer maydonlarining sifat ko'rsatkichlari

| Zonalar | Haydaladigan yer maydoni, ga | Ball boniteta | Yerlarning sifat bo'yicha klasslarga ajratilishi | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Eng yaxshi I-kl. | Yaxshi II-kl. | O'rtacha III-kl. | O'rtachadan past IV-kl. |
| Shimoliy | 250.2 | 39.7 | - | 0.1 | 103.0 | 146.7 |
| Markaziy | 56.4 | 44.1 | - | 1.0 | 32.6 | 22.1 |
| Janubiy | 121.8 | 46.2 | - | 13.3 | 66.9 | 42.7 |
| QR bo'yicha | 428.4 | 42.4 | - | 14.4 | 202.5 | 211.5 |

Jadval O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi "O'zdaverloyha" davlat ilmiy-loyhalash instituti Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limi "QRerloyha" ma'lumotlari asosida tuzildi.

Bizning tadqiqotlarga ko'ra, keyingi yillarda (2015–2020-yy.) ozuqa ekinlar salmog'i ekin yerlar tarkibida 8,9 foizni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich paxta bilan almashlab ekishning ilmiy me'yorlariga yetarli darajada mos kelmaydi. Mutaxassislarning hisoblariga ko'ra, ozuqa ekinlarining optimal me'yori barcha ekin maydonlarining 30-35 foizini tashkil etishi zarur[12].

Hisob-kitoblarga ko'ra mintaqa hududining sug'oriladigan maydonlarning 70 foizdan ortig'i turli darajada sho'rlangan. Bu esa, o'z navbatida, ekin yerlarning meliorativ holatini yaxshilash maqsadida ko'proq beda ekishni va shu orqali almashlab ekishni yo'lga qo'yish bilan ekinlarning ayniqsa, paxta xosildorligini oshirishni talab etadi.

Qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirish uchun tarmoqqa ilmiy asoslangan almashlab ekishni joriy etish zarur. Bu tuproq unumdorligini izchil oshirish, zararkunandalar, kasalliklar, begona o'tlarga qarshi kurash va sug'orish jarayonida suvidan samarali foydalanishni ta'minlaydigan tashkiliy, agrotexnik va iqtisodiy tadbirlar majmuasidir. Almashlab ekishning asosiy vazifasi – mahsulot birligiga suv, mehnat va o'g'itlarning tejamkorlik bilan sarflagan holda ekinlar hosildorligini izchil oshirishni ta'minlashdan iborat. Almashlab ekishni amaliyotga to'liq joriy qilish tuproq hosildorligini oshirish bilan birga chorva mollarini yuqumli va turli assortiment ozuqa bazasi bilan ta'minlash imkonini beradi.

Respublikada keyingi yillarda jami ekin maydonlar tarkibida beda ekin maydonlari ulushi keskin kamayib ketgan. Bu ilmiy asoslangan almashlab ekishning deyarli yo'lga quyilmaganligidan dalolat beradi. Mazkur holat tuproq unumdorligining pasayishiga olib kelayotgan sabablardan bir hisoblanadi.

Tuproq qatlami kuchli sho'rlangan mintaqada almashlab ekishni amaliyotga joriy etish nafaqat dehqonchilik samaradorligini balki chorvachilik ozuqa bazasini mustahkamlash, qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, bir gektar beda maydoni 300 kg sof tabiiy azot to'playdi. Qoraqalpog'iston sharoitida ikki yillik bedadan so'ng begona o'tlarning kamayishi, yerning meliorativ holatining yaxshilanishi hisobiga uch yil dovamida paxta hosili deyarli 15 s/ga ko'payishi, shu davr mobaynida bir gektar paxta ekin maydoniga sarflanadigan mehnat harajatlari 60 ish kuniga qisqarishi aniqlangan[13]. Beda tuproq qatlamida nafaqat tabiiy azot va chirindi miqdorini oshiradi, shu bilan birga uning meliorativ holatiga ijobiy ta'sir etadi. M.V.Muxamedjanovning o'z tadqiqotida beda tuproqning fizik xususiyatlarini tubdan yaxshilashini, yer osti suvlari pasayishini, buning natijasida tuproqning sho'rlanishining keskin kamayishini e'tirof etadi[14]. U eng yuqori mahsuldor va oqsilga boy ozuqa ekini hisoblanadi. Chorva mollarining mahsuldorligini oshiribgina qolmasdan ularni ko'plab kasalliklardan saqlaydi va davolaydi. Shu sababdan tuproqqa va chorva mollariga ta'siri jihatdan hech bir ekin beda o'rnini bosa olmaydi[15].

Ozuqa ekin maydonlari tarkibida ko'p yillik o'tlar bilan birga boshoqli, dukkakli va lavlagi ekinlarini ekish chorvani yil davomida oqsilga va ko'k ozuqaga bo'lgan ehtiyojini qondirishi, pirovardida chorva mahsuldorligining ortishiga olib keladi. Bu o'z navbatida yil davomida yer-suv va mehnat resurslardan samarali foydalanishning garovi hisoblanadi.

Qoraqalpog'istonda tabiiy namlikning kamligi (bu yerda yiliga tuproq yuzasidan 1300–1400 mm namlik bug'lanadi, yiliga o'rtacha 90–110 mm miqdorda yog'in-sochin-sochin tushadi) sababli ekinlarni sug'orish sun'iy

12 Лапкин К.И. Размещение и спезиализация сельсохозяйственного производства по зонам и районам Узбекской ССР. – Ташкент: Фан, 1988. – 390 с.
13 Рзаев К., Медетуллаев Ж. Развитие экономика Каракалпакстан. –Нукус. –1996. –С.72-73.
14 Мухамеджанов М.В. Беречь землю, умножить ее плодородие. –Земледелие. –1986. –№1. –С. 3-6.
15 Исмаилов У.Е. Научные основы повышения плодородия почвы. –Нукус. –Билим. –2004.

yoʻl bilan amalga oshiriladi. Markaziy Osiyo mintaqasida ayniqsa, Amudaryoning quyi oqimida suv resurslari taqchilligining oshib borishi suv resurslaridan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Shu bois hukumat tomonidan suv resurslaridan samarali foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-dekabrdagi "Qishloq xoʻjaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari toʻgʻrisida" gi №4919-sonli[16], Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-maydagi "Qishloq xoʻjaligida suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va suvni yetkazib berish boʻyicha xarajatlarni qoplash chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi №310-sonli[17] qarorlari asosida yirik loyhalar ishlab chiqildi. Ushbu loyihalar doirasida Oʻzbekiston ayniqsa, Qoraqalpogʻiston hududida suv resurslaridan samarali foydalanish boʻyicha qator tadbirlarni amalga oshirish boʻyicha vazifalar belgilab olindi (5-jadval).

5-jadval: Oʻzbekiston Respublikasida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish boʻyicha prognoz koʻrsatkichlari[18]

| | Oʻzbekiston Respublikasi | Qoraqalpogʻiston Respublikasi | Qoraqalpogʻiston Respublikasi ulushi, foizda |
|---|---|---|---|
| Umumiy reja (ga) | 430000 | 45423 | 10.6 |
| Tomchilab sugʻorish (ga) | 210739 | 7323 | 3.5 |
| Yomgʻirlatib sugʻorish | 18638 | 0 | 0.0 |
| Diskretli sugʻorish (ga) | 623 | 100 | 16.1 |
| Yerni lazerlash (ga) | 200000 | 38000 | 19.0 |

Mintaqada bugungi kunda suv xoʻjaligi davlatning kapital qoʻyilmalarining asosiy obyektlaridan biriga aylandi. Agar ushbu maqsadda 2016 yilda 13.0 mlrd. sum sarflangan boʻlsa, 2017 yilda 14.7, 2018 yilda 76.3, 2019 yilda 38.1, 2020 yilda 44.0 mlrd. sumni tashkil etgan. Tahlil qilinayotgan yillar davomida oʻrtacha suv ta'minoti yaxshilangan maydonlar 102 ming ga. yetkazilgan (6-jadval).

6-jadval: Qoraqalpogʻiston Respublikasida irrigatsiya obyektlarni qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash boʻyicha ma'lumot

| Koʻrsatkichlar | Oʻlchov birligi | 2016–2020-yillar | 2016-yil | 2017-yil | 2018-yil | 2019-yil | 2020-yil |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Loyiha soni | dona | 64 | 8 | 8 | 12 | 23 | 13 |
| Kanallar | km | 239 | 31.3 | 49.5 | 25.0 | 67.1 | 66.3 |
| Ajratilgan mablagʻ | mlrd. | 186 | 13.0 | 14,7 | 76.3 | 38,1 | 44.0 |
| Suv ta'minoti yaxshilangan maydon | ming. ga | 102 | 33.3 | 9.2 | 20.6 | 17.0 | 21.5 |

Qoraqalpogʻiston Respublikasi suv xoʻjaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Qoraqalpogʻistonning yagona sugʻorish manbai Amudaryo hisoblanadi. Amudaryo suvidan nafaqat qishloq xoʻjaligida balki iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida, aholining kundalik ehtiyojlari uchun ham foydalaniladi. Bu esa suvdan foydalanishning yangi texnologiyalarni (tomchilab sugʻorish, suvni kam talab etadigan ekinlarni ekish) ishlab chiqarishga jalb etishni taqozo etmoqda. Ekin yerlarga suv olib borish magistral va xoʻjaliklararo irrigatsiya tizimlari orqali yetkaziladi. Ularning umumiy uzunligi 3868,8 km. tashkil etib shundan, 90 km. beton qoplamali xolos. Olimlarning ta'kidlashicha, tuproq uzanli irrigatsiya tizimida dalaga suv olib borish jarayonida 40 foizgacha suv resurslari yoʻqotilishi kuzatiladi[19]. Demak, mintaqada irrigatsiya tizimlarini toʻliq beton qoplamaga oʻtkazish suv resurslaridan samarali foydalanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, 415.7 km yoki 10.7 foiz irrigatsiya tizimlari ta'mirga muhtoj hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, qishloq xoʻjaligi uchun zarur boʻlgan suv normalarini agrotexnik qoidalarga mos holda yangidan rejalashtirish va suvdan foydalanishni kafolatlash orqali ekinlarni sugʻorishni yangi me'yorga oʻtkazish zarur.

16 https://lex.uz/docs/5157168
17 https://lex.uz/docs/4823390
18 Sauxanov J.K. Agrar tarmoqda tashqi samaralarni optimal tartiblashtirish va transaksiya xarajatlarini pasaytirish: muammolar, usullar va modellar. T.: Lesson Press. 2022. 119. b.
19 Юсупбаев К.Ю. Особенности реализации экономической реформы в аграрном секторе Республики Каракалпакстан. Т.: 2001. С. 114.

Butun Orol dengizi havzasida bo'lgani kabi Amudaryo havzasida ham suv ta'minoti holati tobora murakkab va keskinlashib bormoqda.

Sug'orish tizimining qoniqarsiz holati, kuchli va juda kuchli sho'rlangan yerlarning nisbatan ko'pligi ularni yuvish uchun katta miqdorda suv sarfini talab qilmoqda. Bundan tashqari, sug'orish tizimidagi texnik vositalarning yetishmasligi sug'orish uchun qo'shimcha mablag'larning sarflanishiga olib kelmoqda.

Xalq xo'jaligini suv resurslari bilan ta'minlashni kafolatlash uchun butun Orol dengizi havzasida suv resurslaridan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish bo'yicha quyidagi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur[20]:

- gidromeliorativ tizimlarni kompleks rekonstruksiya qilish;
- daryo oqimini tartibga solishni takomillashtirish;
- iqtisod usullarni amalga oshirish;
- sho'rlangan yerlarda maqbul meliorativ rejimlarni ta'minlash;
- avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini joriy etish asosida gidromeliorativ tizimlarni ekspluatatsiya qilish xizmatini takomillashtirish;
- suvdan foydalanishning qat'iy tizimini ta'minlash va h.k.

Qoraqalpog'istonda qishloq xo'jaligini ustuvor rivojlantirish yo'nalishlaridan bir sug'oriladigan yerlardan to'liq va samarali foydalanish hisoblanadi. So'ngi yillarda mavjud sug'oriladigan maydonlardan foydalanish bo'yicha jiddiy muammolar yuz bermoqda. Jumladan, jami sug'oriladigan maydonlarning 50.0 foizidan ortig'i foydalanilmasdan kelinmoqda. Tahlillarga ko'ra 1.5 foizi yerlarning o'ta kuchli sho'rlanganligi, 3.2 foizi sug'orish tarmoqlarining nosozligi, 16.7 foizi suv tanqisligi yoki yetishmasligi va 78,6 foizi boshqa turli xil sabablarga ko'ra foydalanilmagan (7-jadval).

7-jadval: Qoraqalpog'iston Respublikasida sug'oriladigan maydonlardan foydalanish darajasi, ming ga hisobida

| Mavjud sug'oriladigan maydon | Shundan foydalanilmaydigan maydon | Foydalanilmaganlik sabablari | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | O'ta kuchli sho'rlanganligi | Sug'orish tarmoqlarining nosozligi | Suv tanqisligi yoki yetishmasligi | Boshqa sabablar |
| 514.6 | 260.4 | 3.9 | 8.3 | 43.6 | 204.6 |

Jadval Qoraqalpog'iston Respublikasi suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Biznig tahlillar bo'yicha sug'oriladigan yerlardan to'liq foydalanilmaslik qishloq xo'jaligiga qo'shimcha 9500–9700 mlrd. sum atrofida daromad tushimiga to'sqinlik qilgan.

## XULOSA

Hosildorlikni oshirishda serhosil navlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda seleksiya va urug'chilik bo'yicha ilmiy ishlarni kengaytirish muallif va ilmiy tadqiqot korxonalarini davlat tomonidan moliyaviy resurslari bilan ta'minlash, nav nazorati uchun ularning mas'uliyatini oshirish lozim.

Shuningdek, mahsulot yetishtirish hajmini oshirish, tannarxini pasaytirish, mehnat unumdorligini ko'tarish masalalarini hal etishda xo'jaliklararo kooperatsiya va agrosanoat integratsiyasi asosida qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishni ixtisoslashtirish va mujassamlashuviga ustuvor ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.

Dehqonchilikda yuqori hosil olishda ekin maydonlarini yovvoyi o'tlardan tozalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ko'p yillik begona o'tlarni tozalashda ekin yerlarni chuqur shudgor qilish samarali usul hisoblanadi.

Chorvachilik tarmog'ida ham o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Yuqorida olib borilgan tahlillarga ko'ra chorva mollari va mahsulot yetishtirish mintaqada muttasil o'sib borgan. Ammo, tarmoqning rivojlanishi ekstensiv xarakterga ega. Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi ham past. Tarmoqda ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishda eng avvalo ozuqa bazasini mustahkamlash lozim.

20 Социально-экономические проблемы Арала и Приаралья. Т.: Фан. 1990. С 12.

**Adabiyotlar:**

1. Бектемиров К.К. Устойчивое развитие регионов экологического кризиса: методология и инструментарий применения в Приаралье. –Т.: Фан. –2006. –160 с.
2. Исмаилов У.Е. Научные основы повышения плодородия почвы. –Нукус. –Билим. –2004. –186 с.
3. Лапкин К.И. Размещение и спезиализация сельсохозяйственного производства по зонам и районам Узбекской ССР. – Ташкент: Фан, 1988. –390 с.
4. Madenova E. N. “Qoraqalpog‘iston Respublikasini kompleks rivojlantirishning uzoq muddatli strategiyasi” Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati. –2019-yil, 24 b.
5. Мухамеджанов М.В. Беречь землю, умножить ее плодородие. Земледелие. –1986. – №1. – С. 3-6.
6. Медетуллаев Ж. Проблемы комплексного освоения земель. Нукус. Каракалпакстан. –1976. –352 с.
7. Рзаев К., Бектемиров К. Состояние и перспективы развития сельского хозяйства Приаралья в ходе рыночных преобразований //Общественные науки в Узбекистане. –1997. –№3-4. –С. 12-16.
8. Рзаев К., Медетуллаев Ж. Развитие экономика Каракалпакстан. Нукус. 1996. С.
9. Убайдуллаев К., Данияров К. Актуальные проблемы аграрного сектора Республики Каракалпакстан в условиях рынка. // Актуальные проблемы современной науки. –2004. –№2. –С. 90-91.
10. Умаров Е.К. Проблемы совершенствования территориальной структуры производительных сил Республики Каракалпакстан. Автореф. на соиск. уч. степ. доктор географических наук. –Т.: 2003. –48 с.
11. Sauxanov J.K. Agrar tarmoqda tashqi samaralarni optimal tartiblashtirish va transaksiya xarajatlarini pasaytirish: muammolar, usullar va modellar. – T.: Lesson Press. –2022. –269. b.
12. Социально-экономические проблемы Арала и Приаралья /Отв. ред. Рахимов Э.Д. –Т.: Фан, 1990. –144 с.
13. Sultanov B.F. Qishloq xo‘jaligida meliorativ tadbirlar samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish. DSs avtoreferati. – T.: 2020. –77 b.
14. Юсупбаев К.Ю. Особенности реализации экономической реформы в аграрном секторе Республики Каракалпакстан. –Т.: 2001. –194 с.
15. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi 2019–2022 statistik to‘plam. –T.: 2023.
16. Bektemirov K. Land reform in the Aral Sea region //Beyond Growth: Institutions and Policies for Sustainability. Santiago, Chile ISEE, 1988. P166.
17. https://lex.uz/docs/4823390
18. https://lex.uz/docs/5157168

TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 4**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.